

IMPROVING MECHANISMS OF SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION OF GENERAL SECONDARY SCHOOL STUDENTS

Gozal Eraliqizi Abdikhodirova
Teacher of "General Pedagogy" Department
Chirchik State Pedagogical University

Abstract:

In this article, the scientific views on the improvement of the mechanisms of spiritual and moral education of general secondary school students are described. Scientific opinions are based on facts.

Keywords: value, culture, family, education, happiness, behavior, virtue, thinking, morality.

UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI O`QUVCHILARINI MA`NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdixodirova Go`zal Erali qizi
"Umumiy pedagogika" kafedrası O`qituvchisi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada umumiy o`rta ta`lim maktabi o`quvchilarini ma`naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari takomillashtirish haqida ilmiy qarashlari bayon etiladi. Ilmiy fikrlar faktlarga asoslanib xulosalanadi.

Kalit so`zlar: qadriyat, madaniyat, oila, tarbiya, baxt-saodat, xulq, fazilat, tafakkur, axloq.

Ta`lim tizimini tubdan isloh qilishdan ko`zlangan asosiy maqsad - uni eski mafkuraviy qarashlardan mutloq forig` etish, o`sib kelayotgan yosh avlodni o`z yurtining fidoyisi, vatanparvar, ma`naviy-axloqiy jihatdan yetuk insonlar etib tarbiyalashdir.rox.

Barkamol avlodni voyaga yetkazishda, ularni har tomonlama komil inson etib shakllantirishda bobokalonlarimiz merosi bo`lgan boy milliy qadriyatlarimizdan, madaniy yodgorliklardan, tarbiyaning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish ta`lim-tarbiya sohasining ustivor yo`nalashlaridan biridir.

Ta`lim muassasalarida o`quvchilar tarbiyasi masalasiga e`tibor berilayotgan bo`lsada, bu borada o`z yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Tadqiqot ishlari, ilmiy izlanishlarda ko`proq ta`limiy muammolar, yangicha o`qitish texnologiyalari mavzulari ustida bahs yuritilmoqda. Aslida, tarbiyani birinchi masala darajasiga olib chiqish, maqsadga muvofiqdir. Chunki jamiyat ravnaqi uchun faqat nazariy bilimlarga ega bo`lgan, mexanik mashina singari



vazifalarini bajaruvchi kasb egalari emas, balki, eng avvalo chuqur his-tuyg'uli, yuksak ma'naviy- axloqiy fazilatlarga ega shaxslar zarur. Ma'naviy ehtiyoj va dunyoqarash, madaniyat va axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish orqaligina bunday shaxsni tarbiyalash mumkin.

Keyingi yillarda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim va tarbiya mazmunini tubdan isloh qilindi. Mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'ana-larimiz, axloq-odob, madaniyatimiz qayta tiklanib, ta'lim-tarbiya mazmunining asosiga aylandi. Zero, o'sib kelayotgan yosh avlod o'z milliy qadriyatlarini, axloq-odob madaniyatini o'zlashtirishi va ularga hurmat bilan qarashi lozim. Shundagina u o'z yurtining haqiqiy vakili degan ulug' unvonga ega bo'ladi.

O'zbek xalqi tarixan tarbiya sohasida o'ziga xos dorulfunun yaratgan. Bu borada xalq pedagogikasi boy tajribaga ega. Bugungi kunda tarbiya maqsad va vazifalarini hal etishda uning o'rni beqiyosdir.

Keyingi yillarda milliy-axloqiy tarbiya an'alariga oid muammolar yuzasidan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Pedagog olimlarimiz tomonidan yaratilgan bir necha risola, qo'llanma, ilmiytadqiqot ishlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. (Q. Abdullaeva, A. Jo'raev, B. Jo'raeva, A. Zunnunov, X. Iskandarov, A. Munavvarov, D. Ubayxo'jaev, K. Xoshimov, O. Hasanboeva, A. Shojalilov, A. Ergashev, T. Qurbonov, M. Quronov, M. Ochilov, R. Hasanov, K. Hoshimov, Safo Ochil va boshqalar). Ayniqsa, «Xalq ta'limi», «Boshlang'ich ta'lim» jurnallaridan ko'plab maqolalar ham shu mavzuga bag'ishlangan.

Axloqiy tarbiyaning usul va vositalari muammosiga bag'ishlangan tadqiqot ishlari ko'plab uchrasada, ammo ular asosan katta yoshdagi o'quvchi va talabalar o'rtasida ma'naviy-axloqiy ishlarni olib borishga qaratilgan. Lekin, kichik yoshdagi o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda qo'llaniladigan usul va vositalar haqida yaxlit bir tadqiqot ishi qilingan deb bo'lmaydi.

Qolaversa, keyingi yillarda tarbiyaga nisbatan ta'limga e'tibor kuchayib bormoqda. Tarbiyaning mazmuni maqsad va vazifalari, uni amalga oshirishning vosita va usullari tadqiqot sifatida ko'pchilikni qiziqirmayapti. Buning natijasi qanday holatlarga olib kelishini tasavvur etish qiyin emas. Vaholanki, bizning xalqimiz bola tarbiyasi sohasida katta tajriba va imkoniyatlarga ega

Tarbiya ijtimoiy xayotning uzluksiz tushunchasi bo'lib, u tarixiy xarakterga egadir. Qadimgi Gresiyada va Rimda tarbiyaning maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodni yaxshi fazilatlarga o'rgatish, unda fuqarolik, vatanparvarlik, ja'surlik, sadoqat, do'stlik kabi sifatlarni rivojlantirish bo'lgan.

O'rta asrlarga kelib, ya'ni fiedalizm davrida yosh avlodda diniy e'tiqod, iymon, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish zarurati to'g'ilgan. Markaziy Osiyo xalqlari bu yo'nalishda katta muvafaqqiyatlarga erishgan. Bu davr buyuk mutafakkirlarni dunyoga keltirgan [16,20]. Siyosiy-ijtimoiy tuzum o'zgarishi bilan tarbiya maqsadi muammosi ham yangilanib bordi. Bizning hayotimizga qizil imperiya kirib kelishi bilan bizga yod bo'lgan siyosiy-mafkuraviy g'oyalarni yoshlarimiz ongiga singdirish o'sha davr tarbiyaning bosh maqsadi bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunda uning ruhiy asoratlaridan to'liq qutildik. Ushbu mafkura 70 yildan ortiq hukmronlik qilib keldi. Bu davrda ta'lim sohasida bir qancha yutuqlarga erishgan bo'lsakda, lekin, juda ko'p qadriyatlarimizdan judo ham bo'ldik. Jumladan, milliy qadriyatlarimiz,



ma'naviy-ma'rifiy boyliklarimiz, diniy e'tiqod va iymonimiz kabi ko'plab tarbiyaviy ozuqa vositalarimizdan o'zoqlashib ketdik.

Mustaqillik sharofati bilan erkinlikka erishdik, boy ma'naviy qadriyat va an'analarimiz qayta tiklandi. Hammamiz azaldan orzu qilgan kunlarga yetishdik. O'zbekistonning ertangi kuni, ravnaqi, rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishi albatta o'sib kelayotgan barkamol yosh avlodga bog'liq. Buning uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida zamonaviy bilimlar berish, ularni har tomonlama ma'naviyaxloqiy yetuk shaxs etib tarbiyalash lozim.

REFERENCES:

1. Abdixodirova, G. Z., Magzimova, G., & Kuybakova, O. (2023). Shaxsni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash. *Академические исследования в современной науке*, 2(5), 110-114.
2. Abdixodirova, G. Z., Magzimova, G., & Kuybakova, O. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda "qo'g'irchoq teatri" ning roli va ahamiyati. *Science and innovation in the education system*, 2(2), 86-89.
3. Abdixodirova, G. E. (2023). Harbiy psixologiya va pedagogika fanlarini o'qitish bo'yicha xorijiy mamlakatlardagi tajribalar bilan o'rtoqlashish. *Mudofaa vazirligi*, 1(1), 110-113.
4. Abdixodirova, G. E. (2022). O'tmish mutafakkirlarining musiqa san'ati yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini va musiqiy idrokni shakllantirishdagi tutgan o'rni. *Scientific Impulse*, 1(3), 788-794.
5. Abdixodirova, G. E. (2022). Ma'naviy-axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar. *History and page*, 1(1), 250-254.
6. Abdixodirova, G. E. (2022). O'quvchilar-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va inson komilligi mezonlari. *Topical Issues of Science*, 1(4), 87-90.
7. Тохирова, Л. (2023). Психологическое здоровье будущего педагога в образовательном пространстве педагогического вуза. *Замонавий таълим*, 1(1), 18-26.
8. Тохирова, Л. (2023). Когнитивные технологии как эффективная педагогическая технология. *Fanlararo yondashuv*, 1(1), 6-12.
9. Тохирова, Л. (2022). Психолого - педагогический опыт направленный на определение особенностей применения технологии интернет-тестирования базы знаний студентов. *Pedagogik va psixologik aspektlar*, 1(1), 1-3.
10. Тохирова, Л. (2022). Риск негативных изменений у студентов Педагогических вузов в процессе онлайн тестирования по дисциплинам. *Ёшларда салбий ўзгаришлар*, 1(1), 1-5.
11. Тохирова, Л. (2022). Совершенствование технологии интернет-тестирования базы знаний студентов педагогических вузов. *Замонавий таълим модернизацияси*, 1(1), 1-5.
12. Tilavova, S. (2023). Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini steam yondashuv asosida takomillashtirish. *Interpretation and researches*, 2(1).



13. Tilavova, S. B. (2023). Ekologik kompetentligini STEAM yondashuv asosida takomillashtirish texnologiyalari. *Innovatsion ta'lim*, 1(1), 1-7.
14. Tilavova, S. B. (2023). Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ekologik kompetentligini takomillashtirishda steam yondashuv. *Pedagogika ilmiy metodik jurnali*, 1(1), 147-149.
15. Tilavova, S. B. (2023). Eko-STEAM ta'lim kompetensiyalarni rivojlantirishda fanlararo yondashuv. *Mugallim*, 1(1), 100-109.
16. Quvondiqov, S. S. (2022). Dynamic situation as a meta way of perception and understanding of competitive activity in martial arts.
17. Vahabov, M. T., Jamolov, L. U., Turgunboev, O., & Suvonova, D. K. (2022). Key Issues of Development Strategy and Educational Propagation of the New Uzbekistan. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 15, 34-40.
18. Kurbanovna, S. D., & Mustafakulovich, K. S. (2022). The Role of Aesthetic Culture in Educational Processes. *Open Access Repository*, 8(04), 208-210.
19. Mustafakulovich, K. S., & Kurbanovna, S. D. (2023). Effect of Aesthetic Categories on Human Spirituality. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(11), 501-503.
20. Quvondiqov, S. S., Xujomov, B. X., Tursoatov, A., Sangirov, N. (2023). The use of interactive teaching methods in sports Uzbekistan. *International Sports Journal*, 7(37), 321-326.
21. Eshmuminovich, T. A. (2023). General characteristics of the organization of continuous pedagogical experimental work. *Bphilosophy*, 20.
22. Bobomurod Khujomov, A. T. (2019). Professional Competencies As Integral Qualities of a Specialist's Personality. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 39-43.
23. Kadyrova, O. K. (2020). Professional pedagogical activity its types and structure. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 1(12), 93-96.
24. Janbayeva, M. S. (2023). Development of the National Etiquette Culture of Future Teachers Based on A Synergistic Approach. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 1(3), 5-7.
25. Smatillaevna, J. M., Ziyoda, Y., & Mokhinur, E. (2023). Technologies for development of pedagogical skills of future teachers in the pedagogical education system. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 20(8), 63-65.

